

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON BA‘ZI GIDRONIMLARINING NOMLANISH TAMOYILLARI VA ULARDA OPPOZITSIYA

Kamolov Azizbek

Nukus DPI 2-kurs doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi ayrim suv obyektlarining nomlanish prinsiplari geografik jihatdan tadqiq qilingan. Janubiy tumanlar gidronimlaridagi oppozitsiyaning yuzaga kelish omillariga ko‘ra turlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: nisbiylik, pozitivlik, salbiylik, oppozitsiya, nominatsiya, daryo, kanal, kollektor.

Insoniyat borliqdagi narsa, voqea- hodisalarni teran anglar ekan, ularning xos bo‘lgan xususiyatlarini ularning umumiy va xususiy belgilarini sezadi, ularning ayni vaqtda cheksiz, undagi mavjud narsalar, yuz beradigan xabarlar haqida gapiradigan tushuncha va odamlarga tegishli bo‘ladi. Bu tilda, ularga berilgan nomlarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Suv havzalarini nomlash nisbiylik, pozitivlik va salbiylik tamoyillariga asoslanadi. Toponimlar nominatsiyasining tamoyillari V.A.Nikonov, L.M. Maydonova, Z. Do‘simov, T. Nafasovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Bunday munosabat, albatta, gidronomiyaga ham xosdir. Bu bog‘lanish, albatta, gidronomiyaga xosdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlari, xususan gidronim, gidrooykonimlari va mahalliy geografik terminlar bo‘yicha tadqiqotlarni Q. Abdimuratov, Q. M. Seytniyazov, K. M. Koshanov va A. A. Zarimbetov, G. J. Mambetova, G. M. Abishov, I. O. Xolmuratov, O. O. Baltabayev va boshqa geograf, filolog va tarixchi olimlarning dissertatsiya va ilmiy maqolalarida uchratishimiz mumkin. [1.137]

Nisbatlash tamoyiliga asoslangan nomlash jarayonida gidronimlar oppozitsiyasi yuzaga keladi. O‘zbek tili gidronimlarida oppozitsiyaning binar, trinar va boshqa turlari kuzatiladi. Suv ob‘ektlarining hajmi, yer yuzasida joylashish o‘rnini, masofasi uzun-qisqaligi, paydo bo‘lishi va barpo etilish vaqti, u bilan bog‘liq aholining etnik tarkibi va suvining maza-ta‘mi, rangi belgi-xususiyatlar gidronimiyasidagi oppozitsiyani yuzaga keltirib chiqaruvchi omillardir. Nisbiylik tamoyli bir suv ob‘ektiga xos belgi xususiyatni boshqa suv ob‘ektiga qiyoslash, taqqoslash va solishtirishga asoslanadi. [2.48] Masalan, birgina Amudaryo tumani misolida “Sho‘ryop” kanali, “Uzunsu”, “Sarikungul” , “Qorachungulko‘l”, “Sho‘rsapa” ko‘llari va boshqa gidronimlarni misol keltirish mumkin.

Suv ob‘ekti va inshootlarini nomlashda ob‘ektning tabiiy-geografik ularni yoki nomlash uchun yoki nomlash uchun asos bo‘layotgan biror voqea-hodisani anglata olishga asoslanganlik qonuni pozitivlik (lotincha positivus–musbatli, ijobiy) tamoyili deyiladi. Ushbu tamoyil aksariyat suv ob‘ektlarini nomlashda juda ko‘p va keng

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yaratishga asoslangan tamoyildir. O‘zbek tili gidronimlarning salmoqli qismlarini pozitivlik tamoyili asosda yuzaga kelgan nomlar tashkil etadi. Jumladan, birgina suvning belgi-xususiyatlari asosida nomlangan “buloq”, “daryo”, “ko‘l” kabi yuzlab gidronimlarning mavjudligi barcha fikrimizning yorqin isbotidir:

Fikrimizning dalili sifatida, Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi “Shomishko‘l”, “Tuzlanko‘l”, “Saqarko‘l”, “Ko‘kdaryo”, “Cho‘rtanliko‘l”, (*Beruniyt.*), “Aqshako‘l”, (*Ellikqal‘a t.*), “Tozako‘l” (*To‘rtko‘l t.*) keltirish mumkin.

Z.Do‘simov negativlik tamoyilida hudud ko‘lami muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Hudud ko‘lami qanchalik kichik bo‘lsa, negativlik ham shunchalik xiralashadi yoki umuman yo‘qoladi. Katta hududlar pozitivlik tamoyili asosda ish ko‘riladi. Masalan, O‘zbeklar yashagan Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumandagi suv ob‘ektini “*O‘risariq*” (*o‘ris* rus so‘zining dialektal varianti) deb nomlanishi negativ holat, chunki bu hududda o‘zbeklar yashadi. Bu yerda rusiga millat mansub. Ularning ko‘chib kelib, odam o‘zlari uchun ariq qazishlari qiyin va xarakterli holat, xususan, Amudaryo tumanidagi “*Erlanator*” (*Krupskaya*) kanali rus bosqinchiligi davrida shu nomdagi harbiy yo‘lboshchi kanalni kesib o‘tib yurish qilib, ushbu hududni bosib olgani va ushbu kanal qazilishida aloqasi yo‘q ekani, esa fikrimizga dalil bo‘la oladi.

N.V.Podolskaya fikricha, asli bir leksemadan iborat nomning ikki antonim so‘z vositasida farqlanishi binar oppozitsiya bo‘ladi. Toponimlarga, jumladan, gidronimlarga xos binar oppozitsiya voqealari haqidagi nazariy qarashlar A.S.Strijak, N.Oxunov tadqiqotlarida ko‘rishimiz mumkin:

1. Suv ob‘ektining hajm xususiyatiga ko‘ra yuzaga kelgan oppozitsiya. Bunda suv ob‘ektining hajmi - katta-kichikligi, uzun-qisqaligi e‘tiborga olinadi. Gidronimlarning bu guruhi, asosan, hajm tushunchasini ifodalovchi katta, kichik kabi antonim sifatlar asosida shakllanadi. Katta so‘zi “hajmi, o‘lchami nisbatan ortiq, ulkan”, kichik “hajm, o‘lchami nisbatan katta bo‘lmagan” ma‘nolarini anglatadi. [3.372-389]

“Uzunsu” ko‘l, Amudaryo tumani, Kaltako‘nadaryo, Kattagar kanal, Beruniy tumani.

2. Gidronimlarning yaratilish davrini hisobga olish asosida yuzaga kelgan oppozitsiya. Oppozitsiyaning bu ko‘rinishi biror hududdagi suv ob‘ektlarining bunyod etilish, yuzaga kelish vaqtiga nisbatan qiyoslanishi, taqqoslanishi asosida yuzaga keladi. Ko‘pincha boshqa toponim turlaridagi kabi bunda avvalgi asosiy suv ob‘ektining ifodalovchi gidronimga eski, keyin paydo bo‘lgan gidronimga yangi antonim sifatlarini qo‘shish asosida gidronimlar oppozitsiyasi yuzaga keladi:

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Kaltaminor, Toza Kaltaminor, “To‘rtko‘l tumani” Yangi yop kanali (To‘rtko‘l t., Amudaryo t.).

3. Oppozitsiyaning raqamlar vositasida hosil qilinishi. Oppozitsiyaning bu turida bir nom bilan atalgan ikki yoki undan ortiq suv ob’ekti va inshooti nomlari sonlar vositasida farqlanadi, oppozitsiyaning bu turi asosan ariq, kollektor, suv to‘sovchi inshootlari nomlarida kuzatiladi: a) kollektor nomlari: K-1-3, K-1-7, K-2, K-3, K-3-1 (Amudaryo t.). b) suv to‘sovchi inshootlari: Amirabod PK-0, Amirobod PK-58, Amirabot PK-102, Amirabot PK-171, ET-3 PK-2, ET-3 PK-56. (Ellikqal’a tumani)

4. Suvning belgi-xususiyatini e’tiborga olish asosida yuzaga kelgan oppozitsiya. Bunday oppozitsiya suvning belgi xususiyatlarini ifodalovchi oq, qora, achchiq, chuchuq, sho‘r, shirin so‘zlari asosida yuzaga keladi

Amudaryo tumanida –Sarikungul kanali, Qorachungulko‘l ko‘li, Qorako‘z, Aqaltin arig‘lari. Sho‘rsapa, Sho‘rsayap, Uzunsu, Sarsapa, Saqarko‘l, Ashshiko‘l, Yangiyap ko‘llari.

Beruniy tumanida –Ko‘ko‘zak, Ko‘kdaryo irmog‘lari, Aqsaqalacha arig‘i, Cho‘rtanliko‘l, Zeyko‘l, Aqshako‘l, Aqko‘l ko‘li. [4.35]

Janubiy Qoraqalpog‘iston toponimlari orasida gidronimlar muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun nomlanish tamoyillarini belgilash ilmiy nuqtai nazardan dolzarb sanaladi. Ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va to‘g‘ri talqin qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baltabaev, O. (2023). Qoraqalpog‘iston Respublikasida gidroobyektlarning oykonim hosil qilishidagi roli va ahamiyati. 137-b.
2. Улуков, Носиржон “Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи”:-Тошкент: Фан, 2008. 44-48b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1-t., 372-389 b.
4. Azizbek, K. (2024). “BOBURNOMA” ASARIDA GIDRONIMLARNING QO‘LLANILISHI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 407-410.
5. Ulugbekovich, K. A. (2023). O ‘ZBEKISTON TOPONIMLARINING O ‘RGANILISH TARIXI. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(5), 34-42.
6. Azizbek, K. (2023). JANUBIY QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI TABIIY GEOGRAFIK BELGILAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN GIDRONIMLARNING GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(1), 29-35.
7. Oxunov N. Toponimlardagi binar oppozitsiya hodisasi//O‘zbek tili va adabiyoti, 1986. 12. 57-60 b